



## FARG‘ONA VILOYATI O‘ZBEKISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 18 - iyul

227-11-161-Q/23

O‘zbekiston tuman hokimligi

### ***O‘zbekiston tumani xududidan o‘tuvchi 4K-923 “Yaypan-Rapqon-Beshariq-Chilmaxram” umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘liga yo‘l belgisi o‘rnatishga va sun‘iy yo‘l noteksligi qurishga ruxsat berish to‘g‘risida***

O‘zbekiston Respublikasining «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida» gi Qonuni (*O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 15-son, 197-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son*)ning 5, 7-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrda «Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 370-sonli Qarori (*Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.12.2020 y., 09/20/796/1639-son*)ga muvofiq, tuman hududida harakatlanish xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transport xodisalarini oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning osoyishtaligini ta‘minlash, bolalar ishtirokida sodir bo‘layotgan yo‘l-ulov xodisalarini oldini olish maqsadida hamda Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman Kengashi deputati M.Sobirovning tuman hokimligida 08.04.2023 yil kuni 05/96-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan deputatlik so‘rovini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalarini qo‘llab,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Xalq deputatlari O‘zbekiston tuman Kengashi deputati M.Sobirovning tuman hokimligida 08.04.2023 yil kuni 05/96-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan deputatlik so‘rovi inobatga olinsin;

2. O‘zbekiston tumani xududidan o‘tuvchi 4K-923 “Yaypan-Rapqon-Beshariq-Chilmaxram” avtomobil yo‘lining 5 km (Ziyo Nursux MFY 26-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi xududi) qismida 1.31 “sun‘iy notekis” yo‘l belgisini o‘rnatish hamda “sun‘iy yo‘l notekisligi” qurishga ruxsat etilsin;

3. O‘zbekiston tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK direktori L.Xaydarovga: 4K-923 “Yaypan-Rapqon-Beshariq-Chilmaxram” avtomobil yo‘lining 5 km (Зиё Нурсух МФЙ 26-умумий ўрта таълим мактаби худуди) qismida 1.31 “sun‘iy notekis” yo‘l belgisi o‘rnatib berish va sun‘iy yo‘l notekisligi qurish vazifasi topshirilsin;

4. “Yaypan ovozi” gazetasi tahririyati va Axborot xizmati raxbari (D. Jabborov) mazkur qaror rasmiy e‘lon qilinishi va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlansin;

5. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi;

6. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Ismoilov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Ш.Юлдашев